

fikrlashini rivojlantiradi.Har xil muammoli vaziyatlar aytib berib bolalardan nima qilsak bo’ladi deb aqliy hujum uyushtirsak bola ko’rsatadi.Bola ijodiy rivojlangan va yuksak ma’naviyat egasi bo’lishi uchun kichikligidan kitobga,adabiyotga muhabbatini shakllantirib borish kerak.Kitobga oshno qalblar hech qachon yutqazmaydi....Quyidagi so’zlar ham bejiz emas:Bugun bitta kitob o’qigan bola ,ertaga 10 ta televizor ko’rgan bolani boshqarishi mumkin. Shavkat Mirziyoyev.

“Ilk qadam” Davlat o’quv dasturida STEAM texnologiyasini qo’llash orqali takomillashtiriladi.Ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun STEAM dan foydalanamiz.Kundalik qo’llaniladigan so’zlarni olamiz va ularni ijobjiy hamda salbiy tomonlarini ko’rib chiqamiz.Bizni kayfiyatimizni yaxshilaydigan va yomon qiladigan so’zlar haqida bollar bilan suhbat olib boramiz,S-Science (fan)

Keyingi qismida so’zlarni bo’g’inlarga bo’lib ko’ramiz bu oraqlali bolalarda so’zlarni bo’g’inlashni o’rganamiz va so’zlar harflardan harflar esa tovushni yozma ifodasiligi haqida aytamiz.T-texnologiya “ o’zo’rniga qo ‘y metodi”

Endi harfli kartochkalarni ketma ketlikda tuzib oddiy so’zlar tuzamiz. Yokida tovush hosil bo’lish jarayonini tushuntiramiz.E-muhandislik

Bitta harf tanlab shu harf boshlanadigan so’zlarni,ismlarni o’rgatish mumkin.A-sa’nat

Bitta so ‘zda nechta harf borligini hisoblatish. M-matematika

Xulosa qilib aytganda,kichik yoshdan bolalarda ijodiy fikrlashni shakllantirib borsa bo’ladi.Bunda ma’naviyati,dunyo qarashi,ongi, tafakkuri teranlashib boradi.Bolalar o’yinga qiziquvchan bo’ladi shuni uchun faoliyatlarimizni o’yin tariqasida o’tib bersak ularga bergen bilimlarimiz oson qoladi.Har bir shaxsni qalbida kichik bolalik bor.Bolalar davrasiga kirganda o’sha kichik bolalikni ko’rsatish kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Otaxonova Manzura G’ofurovnani Maktabgacha yoshdagি bolalarni ijodiy rivojlantirish texnologiyalar noyabr,2023
2. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti

## **NUTQI TO‘LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALARNI SO‘Z YASASHGA O’RGATISH TEXNOLOGIYASI**

*Vaxobova Mohida Ne’mat qizi*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

*Maxsus pedagogika, defektologiya  
(logopediya) yo‘nalishi magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bolalarda nutqning to‘liq rivojlanmaganligi, uning darajalari, nutq xususiyatlari, nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarni so‘z yasashga o‘rgatish texnologiyasi to‘g‘risida ma’lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** nutq, nutq to‘liq rivojlanmaganlik, so‘z, logopediya, texnologiya, logoped, ertakterapiya, izoterapiya, art-terapiya.

**Аннотация.** В статье представлена информация о неполном развитии речи у детей, ее уровнях, особенностях речи, а также о технологии обучения детей с неполной речью образованию слов.

**Ключевые слова:** речь, недоразвитие речи, слово, логопед, технология, логопед, сказкотерапия, изотерапия, арт-терапия.

**Abstract.** This article provides information on the underdevelopment of speech in children, its levels, speech characteristics, and the technology for teaching children with underdeveloped speech to form words.

**Keywords:** speech, underdevelopment of speech, speech, speech therapy, technology, speech therapist, fairy tale therapy, isotherapy, art therapy.

Logopediyada «nutqning to‘liq rivojlanmaganligi» tushunchasi, eshitish va intellekti normada bo‘lgan bolalarda barcha nutq kamponentlarining shakllanishi buzilishi bilan xarakterlanuvchi nutq kamchiligiga nisbatan qo‘llaniladi.

Nutqning to‘liq rivojlanmaganligi tushunchasi bola nutqi rivojlanishining aniq holatidan kelib chiqqan holda, o‘zining etiologiyasi bo‘yicha nutq rivojlanmaganligining turli xil ko‘rinishlariga yagona pedagogik yondashuv imkoniyati haqidagi ilg‘or nuqtai nazarga asoslanadi.

Nutqning to‘liq rivojlanmaganligi termini nutq rivojlanishi buzilishiga g’oyat chuqur yondashuvni ifodalaydi va uni tahlil qilish pedagog zimmasidadir. Bunday yondoshuv mutaxassisdan katta umumbiologik va tibbiy malakani talab qiluvchi, nuqson tuzilishini patogenetik jihatdan tahlil qilishni talab qilmaydi.

Biroq pedagog-logoped uchun kim bilan ishlashi, to‘liq rivojlanmaganlik qay yo‘sinda paydo bo‘lgani, nutq rivojlanishi tempiga qo‘shilib keluvchi nevrologik buzilishlar, genetik belgilar, psixik faoliyat va bola shaxsining xususiyatlari, dordinarmonli davolanishning bor yoki yo‘qligi va boshqa omillarning qanday ta’sir etishi ma’lum ahamiyatga ega. Bular pedagogning shifokor bilan birgalikdagi ishi jarayonidagina aniqlanishi va tahlil qilinishi mumkin.

Nutq ma’lum bir biologik shart-sharoitlar mavjudligida va eng avvalo markaziy nerv tuzilishning normal rivojlanishi va ishlashida yuzaga keladi. Biroq nutq muhim ijtimoiy funksiya hisoblanadi. Shu sababli uning rivojlanishi uchun biologik shart-sharoitlarning o‘zagina yetarli emas, u bolaning kattalar bilan muloqotga kirishishi jarayonida yuzaga keladi. Bunda bolaning hissiy jihatdan yaqin kishisi bilan (onasi) muloqoti yetakchi ahamiyatga egadir. Muloqot extiyoji bolaning atrofdagi odamlar bilan aloqaga kirishishi jarayonida shakllanadi. U bola hayotining dastlabki ikki oyida, uning birlamchi organik talablari va yangi tassurotlarga extiyoji negizida yuzaga keladi. Muloqot vositalari ichida ekspressiv-mimika, predmetli-harakat va nutqiy vositalar ajratiladi.

Bola hayotining birinchi yilini nutqgacha bo‘lgan davr deb nomlaymiz. Bunda kattalar bilan muloqot ekspressiv-mimika va predmetli-harakat vositalari yordamida amalga oshiriladi. Aynan shu davrda bolada jismoniy ob’ekt tovushlariga qaraganda inson ovozi tovushlarini turg’un, tanlab ta’sirlanishi shakllanadi. M.I. Lisina bu holatni jajji odamchaning muhim ehtiyojlarni ifodalashi – muloqotdagi ehtiyojlari sifatida baholaydi.

Bola nutqining yuzaga kelishi va rivojlanishida muloqotning hal qiluvchi rolini gospitalizm tekshiruvlari isbotlaydi. Rag’batlantiruvchi insoniy muhit (oila, bolalar guruhi va h.k.) dan bolani ajratib qo‘yish deprivatsion vaziyat sifatida o‘rganiladi. Bu vaziyat bolaning psixik rivojlanishiga sekinlashtiruvchi omil sifatida ta’sir qiladi. Agar bu vaziyat uzoq davom etsa psixik deprivatsiya holati yuzaga keladi.

Nutq rivojlanishiga, ayniqsa hissiy deprivatsiya yomon ta’sir ko‘rsatadi. Bunda bola tug’ilganidan boshlab uning affektiv ehtiyojlari (suyish, erkalash, yaxshi ko‘rish) qondirilmaydi. Bunday vaziyat ko‘pincha ota-onalari spirtli ichimliklar ichuvchi, onasi yo‘q oilalarda, bola tug’ilishi bilan tarbiyaga sust qaraladigan bolalar uyida tarbiyalanishi oqibatida vujudga keladi.

Nutqning to‘liq rivojlanmaganligini R.E. Levina (1961) uch daraja bilan belgilaydi: nutqiy aloqa vositalarining umuman yo‘q bo‘lishidan to fonetik-fonematik va leksik-grammatik jihatdan rivojlanmaganlik elementlariga ega bo‘lgan mukammal nutq buzilishigacha.

***Nutq to‘liq rivojlanmaganligining 1 darajasi*** nutqning bo‘lmasligi bilan xarakterlanadi. Bunday bolalar nutqsiz bolalardir. 4-6 yoshdagi bunday bolalarning lug’at boyligi kambag’al, noaniq bo‘ladi. Nutqiy tovushga taqlid qilish, tovushlar kompleksi bilan chegaralangan bo‘ladi. Narsa va hodisalarini farq qilmagan holda ifodalash, so‘zlarning ko‘p ma’noga ega bo‘lishi xarakterli xususiyat hisoblanadi: «tu-tu»-mashina, parovoz, samalyot, qayiq; «taq»-yiqildi, tushurib yubordi, sindirdi, buzdi. Bu bolalarning passiv lug’ati aktiv lug’atiga nisbatan ancha boyroq lekin nutqni tushunish pasaygan bo‘ladi, ular ko‘p so‘zlarning ma’nosini

tushunmaydilar. Tovushlar talaffuzida turg'unlik bo'lmaydi, tovushlar bir-biri bilan almashtiriladi, fonematik o'quv buzilgan bo'ladi. Nutq to'liq rivojlanmaganligining bu darajasiga ega bo'lgan bolalar uchun tovushlar analizi bo'yicha berilgan topshiriqlar tushunarsiz bo'ladi.

**Nutq to'liq rivojlanmaganligining 2 darajasi** - dastlabki keng qo'llanadigan odatdag'i nutqning bo'lishi bilan xarakterlanadi. Bolalar oddiy jumlalardan foydalana biladilar, ma'lum lug'at boyligiga ega bo'ladilar. Ular narsalar, xodisalar, alohida belgilar nomini ajrata oladilar. Lekin bunday bolalarda nutqing qo'pol darajada rivojlanmaganligi yaqqol ifodalangan bo'ladi. Ular ikki-uch so'zdan iborat gaplardan foydalanadilar. Lug'at boyligi shu yoshga mos keladigan normadan kam bo'ladi. Umumlashtiruvchi so'zlarni (mebel, kiyim, sabzavotlar, mevalar va boshqalar) bilmaslik kuzatiladi. Xarakat, belgisini bildiruvchi so'zlardan foydalanishda qiyinchiliklar kuzatiladi, predmet nomini va boshqa belgilarini bilmaydilar. Kelishik formalarini chalkashtiradilar, fe'l sonini ot soniga moslashtira olmaydilar.

Nutqning fonetik tomoni shu yoshga mos keluvchi normadan orqada qoladi. Shunday kamchilikka ega bo'lgan bolalar bo'g'inlar o'rnini almashtiradilar, undoshlar ketma-ket kelganda tovushni qisqartiradilar.

**Nutq to'liq rivojlanmaganligining 3 darajasi** - nutqda leksik-grammatik va fonetik-fonematik jihatdan rivojlanmaganlik elementlari kuzatiladi. Bolalar nutqqa ega bo'lgan holda kishilar bilan aloqa bog'lay oladilar, lekin buni ota-on'a (tarbiyachi) ishtirokida, ularning muayyan tushuntirishlari yordamida bajaradilar. Bunday bolalar uchun erkin holda aloqada bo'lish juda qiyin. Tovushlarni talaffuz qilishda ularni bir-biridan ajrata olmaslik, tovushlar guruhini artikulatsiya jihatidan osonroq bo'lgan tovushlarga almashtirish ba'zi hollarda tovushlarni buzib talaffuz qilish bu bolalar uchun xarakterlidir. Lug'at ham normadan orqada qolgan bo'ladi, lug'at boyligi analizida leksik holatlarning o'ziga xosligi ko'rindi. Tekshirishda gaplarni, gaplarda so'zlarni oxirigacha gapirmaslik kabi turg'un grammatik xatolar kuzatiladi. Ko'pchilik hollarda ular qo'shimcha qo'shilish bilan so'z ma'nosining o'zgarishini tushunib yetmaydilar.

### **Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar nutqining rivojlanish xususiyatlari.**

3-4 yoshda bolalar nutqda eng ko'p qo'llaniladigan kengaytirilmagan sodda va to'liq bo'limgan umumiyl gaplardan foydalanadilar. Bola hayotning 5-yilida to'liq umumiyl jumlalar soni ortadi; bolalar kundalik nutqda murakkab jumlalar shakliga murojaat qila boshlaydilar

Bolalar nutqida murakkab jumlalarning paydo bo'lishi ularning atrofdagi hodisalar o'rtasidagi eng oddiy aloqalari, munosabatlari, bog'liqliklari haqidagi dastlabki tushunchalarini ko'rsatadi. Buning uchun bunday bolalar nutqi yanada rivojlangan

grammatik vositalar bilan boyitilishi, logopedik mashg‘ulotlarda ertakterapiya, izoterapiya, artterapiya vositalaridan foydalanish maqdsadga muvofiq.

Bola hayotning 4-yilida bolalar nutqi predmet, shuningdek, ta'rif yoki vaziyatdan iborat kengaytirilmagan va to‘liq bo‘lmajan umumiy jumlalar bilan tavsiflanadi. 5-yilida esa bolalar so‘zlar va qo‘sishchalardan ko‘proq foydalanadilar, bu ularning oddiy umumiy gap shaklini o‘zlashtirganligini ko‘rsatadi.

Bolalarda mavhum fikrlashning paydo bo‘lishi umumlashtirish va mavhumlash funksiyasi kuchaygan so‘zlarning paydo bo‘lishi va individual grammatik shakllar bilan birga keladi, bu bolalarning mavjud aloqalar va bog‘liqliklarni tushunishida yangi bosqichni ko‘rsatadi.

5 yoshga kelib, bolalar til grammatikasini amaliy o‘zlashtirishda katta muvaffaqiyatlarga erishadilar, ammo ular fikrni ifodalash uchun ba'zi grammatik shakllardan foydalanmaydilar yoki umuman ishlatmaydilar.

Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar nutqida bir xil holatlarga ega bo‘lgan gaplar, qiyosiy, murakkab gaplar kamdan-kam uchraydi. Shuningdek, bolalar nutqida tilning so‘z boyligini o‘zlashtirishda ko‘plab xatolar va jumlalarda so‘zlarni muvofiqlashtirishda kuchli ko‘nikmalarning yo‘qligi kuzatilishi mumkin.

Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar nutqida so‘z yasashga o‘rgatishda logoped bolalarning bir qator nutqning grammatik shakllarini egallashiga e’tibor berishingiz kerak:

1. NTR bolalarni atrofdagi narsalar haqida ma'lumot berishga undash kerak, buning uchun ularni nutqning turli qismlari bilan ifodalangan ko‘plikdagi so‘zlardan foydalanishga o‘rgatish kerak.
2. NTR bolalarni bir jumlada bir qator harakatlar va holatlar haqida fikr bildirishga o‘rgating.
3. NTR bolalarni so‘z boyligini boyitishga e’tibor bering.

### ***NTR bolalarni logopedik mashg‘ulotda so‘z yasashga o‘rgatishda***

1. Bolalarni ranglar bilan tanishtirish, “Rangini top, predmetni nomla” texnologiyasi;
2. Bolalarni predmetlar bilan tanishtirishda “U kim, bu nima?” texnologiyasi;
3. Nutqda harakat joyi, o‘lchovi, vaqt, harakat uslubini ko‘rsatish uchun so‘z turkumlarini o‘zlashtirishda “Predmetoterapiya” texnologiyasi.
4. NTR bolalarni o‘ynchoqlar va Logopedik albom asosida umumlashtiruvchi so‘zlardan foydalanishga o‘rgatish kerak.

5. To‘liq umumiyligi jumlalarni o‘zlashtirish davrida jumlalarni to‘g’ri tuzishini kuzatib boring.
6. Maxsus so‘zlar va grammatik shakllarni o‘rgatishda logopedik o‘yinlardan foydalaning.
7. NTR bolalarga murakkab jumlaning shaklini o‘rgatishda ularga bog’lanishlarni shakllantirishga yordam berish, ota-onalar bilan ko‘proq birgalikda ishlash tavsiya etiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аюпова М.Ю. Логопедия. –Т.: Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти, 2007.
2. Арипова Ш.Д. Болалар нутқининг грамматик қурилишини ривожлантиришда коррекцион-педагогик иш тизими: Пед.фан.бўйича. фалсафа док.(PhD) дисс. Автореферати. – Т.:2018.-58 б.
3. Шомаҳмудова Р. Тўғри талаффузга ўргатиш ва нутқ ўстириш. – Т.: «Илм зиё» нашриёти, 2018.
4. Аҳмедова З.М., Аюпова М.Ю., Хамирова М.П. «Логопедик ўйин» “Файласуфлар “ нашриёти Тошкент 2013 6 бет, 34 бет, 93б.
5. Аюпова М.Ю. Преодоление фонетико-фонематической недостаточности у детей-узбеков старшего дошкольного возраста : автореферат дис. кандидата педагогических наук : 13.00.03 / Моск. пед. гос. ун-т. - Москва, 1992. - 16 с.
6. Qodirova R.M. Qodirova F.R. Bolalar nutqini rivojlantirish. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta- maxsus ta’lim muassasalari uchun darslik. T.:, “Istiqlol”, 2006 y.
7. Dergunskaya V.A., Koshkina A.A., O‘yinlar - mакtabgacha tarbiyachilar bilan tajriba: O‘quv-uslubiy yordam - Moskva, Ustoz ta’limi markazi, 2013 - 64 p.

## FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH: INGLIZ TILINING AHAMIYATI VA TA'LIM JARAYONIDAGI ROLI

*Rasuljonova Ruxshona*

*“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti*

*Filologiya va tillarni o'qitish:ingliz tili yo`nalishi*

*I-kurs talabasi*